



# **“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI CHAMATKOR YONDASHUV”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy  
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining  
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



**“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari  
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026.   bet.

**Mas’ul muharrir:**  
**Shuhrat Sirojiddinov**  
filologiya fanlari doktori, akademik

**Tahrir hay’ati:**

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;  
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;  
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;  
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;  
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;  
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



|     |                                                                                                                                                                   |     |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 14. | <b>Dilbar HAYDAROVA,</b><br>Qo‘rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi                                                                    | 474 |
| 15. | <b>Dilorom HAYITBOYEVA,</b><br>Ubaydiy ijodida folklor an‘analari                                                                                                 | 477 |
| 16. | <b>Madina ALIMOVA,</b><br>O‘zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili                                                                    | 480 |
| 17. | <b>Shalolaxon IBODULLAYEVA,</b><br>Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni                            | 483 |
| 18. | <b>Fayzulla ISKANDAROV,</b><br>Na‘tlarda komil inson talqini                                                                                                      | 485 |
| 19. | <b>Nigora SARIMSOQOVA,</b><br>O‘zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishi metodikasi | 489 |

### 6-SHO‘BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

|    |                                                                                                                                                              |     |
|----|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1  | <b>Marvarid QURBONAZAROVA,</b><br>Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis                                                                                | 493 |
| 2  | <b>Marjona O‘RALOVA,</b><br>Dunyo lingvistikasida qishloq xo‘jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi                                         | 496 |
| 3  | <b>Maftuna ABDULLAYEVA,</b><br>Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida                                         | 499 |
| 4  | <b>Dilzodaxon MADRAXIMOVA,</b><br>O‘zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o‘rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida) | 502 |
| 5  | <b>Nigora SONDIBOYEVA,</b><br>G‘allaorol tumani nurobod qishlog‘i shevasining lingvistik tahlili                                                             | 505 |
| 6  | <b>Muxlisa JO‘RAYEVA,</b><br>Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili                                                                                         | 509 |
| 7  | <b>E‘zoza MIZAMOVA</b><br>“Ravshan”dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar                                                               | 513 |
| 8  | <b>Ismigul MATKARIMOVA,</b><br>Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar                                                                           | 515 |
| 9  | <b>Malika TO‘RAQULOVA,</b><br>O‘zbek xalq ertaklarida “Oq” va “Qora” ranglarning dualistik semantikasi                                                       | 518 |
| 10 | <b>Shahnoza MAHMUDOVA,</b><br>Xalq allalarida qo‘llangan ba‘zi dialektizmlar xususida                                                                        | 521 |
| 11 | <b>Mohina BOBOQULOVA,</b><br>Zamonaviy o‘zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi                                                             | 527 |
| 12 | <b>Mohidil SHERXONOVA,</b><br>Namangan vodiysi shevasining o‘ziga xos leksikasi                                                                              | 529 |
| 13 | <b>Muslima AMINJONOVA,</b><br>Namangan viloyati chust tumanidagi “sar sila” marosimi: an‘anaviy udum va uning ramziy talqini                                 | 533 |
| 14 | <b>Dildora HUSANOVA,</b>                                                                                                                                     | 536 |

**O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINI XALQARO KATALOGLAR ASOSIDA  
O‘RGANISH TAJRIBASI**  
(turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)

**EXPERIENCE OF STUDYING UZBEKISTAN FOLK TALES ON THE BASIS  
OF INTERNATIONAL CATALOGUES**  
(on the example of the research of the Turkish scientist Hüseyin Baydemir)

**Dilzodaxon MADRAXIMOVA,**

*Andijon davlat universiteti*

*Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi magistranti*

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VKEN4972

**Annotation.** *This thesis is aimed at a scientific and theoretical analysis of the doctoral dissertation of the Turkish scholar Hüseyin Baydemir entitled «Üzbek halk masalları (İncelme-Metin)» («Uzbek folk tales: analysis and text»). The achievement of the research is that the text of the tales is divided into motifs and classified according to the international «Motif-Index of Folk Literature» catalog system. The thesis also reveals the extent to which Baydemir effectively used the systematization principles of the Finnish school in the study of Uzbek tales, which is considered an important step in the integration and typological study of samples of Uzbek folk oral art with world folklore catalogs.*

**Key words:** *Uzbek folk tales, folklore motifs, «Motif-Index of Folk Literature», Finnish school, comparative folkloristics, Hüseyin Baydemir.*

Bugungi kunda o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini, nafaqat milliy, balki xalqaro kontekstda o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu borada xorijiy tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish dolzarb masalalardan biri. Shu jihatdan turk folklorshunos olimi Hüseyin Baydemirning o‘zbek xalq ertaklariga bag‘ishlangan dissertatsiyasi alohida ilmiy qiymatga ega. Mazkur tezisning maqsadi, ushbu tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslari va metodologiyasini tahlil qilishga qaratilgan. Vazifamizni motivologik yondashuvni tahlil qilish, ertaklarni epizod va motivlar asosida tasniflash usullarini o‘rganish, “Motif Index of Folk Literature” katalog tizimidan foydalanilishini baholashdan iborat deb belgiladik.

Proffesor Hüseyin Baydemirning 2004-yilda yoqlangan «O‘zbek xalq ertaklari: tahlil va matn» mavzusidagi doktorlik (PhD) dissertatsiyasida o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga tegishli 70 ta sehrli ertak xalqaro folklorshunoslik mezonlari asosida o‘rganilgan. Tadqiqotchining yozishicha [Baydemir 2004], bu ertak matnlari S. Saydaliyevaning “Chalpak yoqqan kun” [Saydaliyeva 1969;464], K. Imomovning “Kenja Botir” [Imomov 2000;253], M. Afzalov va K. Imomov birgalikda nashrga tayyorlagan “Oltin beshik” [Afzalov v.b. 1985;252], M. Afzalov, Z. Husainova, N.S. Soburovlar tomonidan nashr ettirilgan “Suv qizi” nomli kitoblardan olingan [Afzalov v.b. 1966; 327]. Dissertatsiya kirish, ikkita asosiy bo‘lim, xotima, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, lug‘at, va aniqlangan motivlar indeksi qismlaridan iborat.

Birinchi bo'lim tahlil qilish (incelme) qismi bo'lib, unda ertaklar epizodlariga ko'ra umulashtirilgan. Aniqlangan motivlar S.Tompsonning "Motif-Index of Folk Literature" [Tomson 1955;58] katalogiga ko'ra tasniflangan va epizodlarning ostida berilgan. Ushbu yondashuvga asosan, motivlar epizodlar tarkibida emas, balki har bir ertak doirasida alohida guruhlanib tahlil qilingan. Bu esa, bir ertakdagi barcha motivlarni yaxlit holda ko'rish imkonini beradi [Beydemir 2004]. Shuningdek, katalogda uchramaydigan motivlar alohida belgilanishi, maxsus (T) indekslash orqali "milliy motiv" sifatida ajratib ko'rsatilishi metodologik jihatdan muhim hisoblanadi. Dissertatsiyaning asosiy maqsadi ham Tompson katalogida mavjud bo'lmagan motivlarni aniqlash ekanligini olim ta'kidlab o'tgan. Ertaklardagi epik formulalarni tasnif qilishda katalogdagi asosiy sarlavhalar aynan berilgan, kichik sarlavhalarda turk olimi S.Sakaoğlu tomonidan taklif etilgan tasnifdan foydalanilgan [Sakaoğlu 1999; 56].

Ikkinchi bo'limda 70ta o'zbek xalq ertaklarining turk tilidagi tarjimasi berilgan. Huseyn Baydemir ertak matnlarini tarjima qilishda uslubiy va poetik xususiyatlarini saqlashga alohida e'tibor qaratgan. Epik formulalar imkon qadar asl ritmik tuzilishda berilib, so'zma-so'z tarjima o'rni xalqona variantlar tanlangan. Shuningdek atoqli otlar o'z holicha saqlangan. Tadbirlarning birida Huseyn Baydemir turk tiliga o'g'irgan o'zbek xalq ertaklari turk shifoxonalarda bemor bolalarga o'qitilayotgani va mazkur ertaklar bolalar ruhiyatida katta ijobiy o'zgarishlar yasayotgani haqida aytib o'tgan<sup>1</sup>.

Olima Zaynab Dilek Alptekin "O'zbek ertaklarida xalq tabobati amaliyotlari" nomli tadqiqotida Huseyn Baydemir (2004) tomonidan O'zbekiston hududidan tanlangan va tarjima qilingan 70 ta ertak matnlaridan foydalangan [Alptekin 2021; 757].

Olim tadqiqoti natijasida ertaklarda jami 1977 ta turli motiv aniqlab, ular umumiy hisobda 7166 marotaba qo'llangani qayd etgan [Beydemir 2004]. Shuningdek, aniqlangan motivlarning katalogdagi barcha asosiy guruhlarda uchrashini o'zbek ertaklarining motiv tizimi jihatidan keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi. Tahlillar natijasida eng ko'p uchraydigan motivlar guruhi sifatida "olag'anüstülük" (g'ayritabiiylik) motivlari ajralib chiqqan. Bu esa o'zbek ertaklarining asosan fantastik va sehrli syujetlarga asoslanganini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, katalogda uchramagan 176 ta motiv aniqlangan. Ular ertaklarda 424 marotaba qatnashgani yozilgan. Diniy motivlardan 8 tasi islom diniga oid bo'lib, katalog tarkibidan topilmagan. Bunday motivlar tahlil qilingan o'zbek ertaklarining 19 tasida aniqlangan.

Umuman olganda, olim o'z tadqiqotida o'zbek xalq ertaklarining motiv jihatdan boy, tizimli va xalqaro folklor tasnifi doirasida o'rganishga mos ekanligini asoslab bergan.

Xulosa qilsak, mazkur tezisda o'zbek xalq ertaklarining xorijiy ilmiy muhitda o'rganilishi turk folklorshunosi Huseyn Baydemir izlanishlari asosida tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot Stith Thompsonning motiv tasnifi orqali o'zbek ertaklarining motiv jihatdan boy va tizimli ekanligini ko'rsatadi. Xususan, motivlarning barcha asosiy kategoriyalarda uchrashini o'zbek folklorining universal folklor modellari bilan uyg'unligini tasdiqlaydi. Bu holat o'zbek xalq ertaklarini xalqaro folklor tizimining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro tasnif tizimlari milliy xususiyatlarni to'liq qamrab ololmasligi aniqlanib, ularni lokal material asosida to'ldirish zarurligi asoslandi. Tadqiqot natijalari o'zbek folklorini qiyosiy va zamonaviy metodlar asosida o'rganish istiqbolli yo'nalish ekanligini belgilaydi.

<sup>1</sup> <http://m.xabar.uz/uz/madaniyat/huseyn-baydemir-ozbek-xalq-ertaklari-turk-bolalarini-davolayapti>

### Foydalanilgan adabyotlar

1. Beydemir H. Özbek Halk Masalları İnceleme ve Metin, Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Erzurum 2004. – B. 1.
2. Saydaliyeva S. Chalpak yoqqan kun, O'zbekiston LKSM Markaziy Komiteti. – Toshkent 1969, – B. 464.
3. Imomov K, O'zbek xalq ertaklari-Kenja Botir, Cho'lpon nashriyoti. – Toshkent 2000, – B. 253
4. Afzalov M, Imomov K, Oltin beshik, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi, A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyoti instituti. – Toshkent 1985, – B. 252.
5. Afzalov M, Husainova Z, Soburov N, Suv qizi, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi, A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyoti instituti. – Toshkent, 1966, – B. 327.
6. S.Tomson "Motif-Index of Folk Literature", 6 Vols, Indiana Universiti Press, Blumington, – Indiana, USA 1955-58
7. Sakaoğlu S. Akçağ yay. – Ankara 1999. – B. 56-66.
- 8.<http://m.xabar.uz/uz/madaniyat/huseyn-baydemir-ozbek-xalq-ertaklari-turk-bolalarini-davolayapti>
- 9 Alptekin Z. D. (2021). Özbek Masallarında Halk Hekimliği Uygulamaları. Asia Minor Studies, 9(2), 757-767. <https://doi.org/10.17067/asm.946662>.

